ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

MUNDARIJA

Shevashunoslik

Marifatxon Anarbayeva
Turk-Barlos urug‘i nutqida saqlanib qolgan qadimiy turkiy lahja elementlari (Marhamat tumani misolida) 6

Adolat Bekturdiyeva
O‘g‘uz lahjasidagi so‘z birikmalari va yondosh til birliklari 13

Muattarxon Turdixo‘jayeva
O‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish tamoyillari 22

Feruza Aminova
Matnazar Abdulhakim she’riyatida morfologik dialektizmlarning aks ettirilishi 29

Durdona Ermatova
The historical development and modern aspects of evidentiality in uzbek language 36

Nazirov Salimbek
Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalarni muqobillashtirish masalalari 48

Dilnavoz Asatullayeva
Umumta’lim maktablarida morfonologiyani o‘qitish metodikasi (yozma va og‘zaki nutq misollari asosida) 55

Dilso‘z Rahmonova
Samarqand qipchoq shevalarining areallari 62

Islom Bo‘riyev
Iboralar komponentlari tahlili: O‘TIL (6 jildli; 2022) materiallari asosida 70

Gavhar Toshtemirova
“Gulnor pari” dostonining fonetik -leksik xususiyatlari 80

Rustam Esanov
Xalq ertaklarida qo‘laniladigan ramzlarning lingvistik xususiyatlari . 88

Botir Raxmonov
Til va madaniyat munosabati, etnodialektal birliklarning lingvomadaniy talqini 97

Hayotxon Salayeva
Gurlan leksikasidagi ayrim so‘zlarning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan qiyosi 105

Sadoqat Rajabova
Ishtixon shevasining o‘z va o‘zlashma qatlam leksikasi 116

Shahlo Ahmadjonova
Namangan qarluq shevalarining fonetik xususiyatlari va areal lingvistik o‘ziga xosliklari 129

Shirinoy Shuhratova
O‘zbek shevalarida kulolchilik terminlarining o‘rganilishi 138

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ERTAKLARDA UCHRAYDIGAN BARQAROR BIRIKMALARNI MUQOBILLASHTIRISH MASALALARI

Nazirov Salimbek[1]

Abstrakt

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi ertak matnlarida uchraydigan barqaror birikmalar – ya’ni frazeologik iboralar, idiomalar, maqollar va boshqa nutqiy qoliplarni tarjima qilish masalalari tahlil etiladi. Ertaklar xalqning madaniy-ma’naviy boyligi bo‘lgani bois ularning tarjimasi jarayonida faqatgina til emas, balki madaniyatlararo tafovutlar, mentalitet va estetik mezonlar ham hisobga olinishi zarur. Maqolada barqaror birikmalarning tarjimasida ekvivalent ifodalar orqali tarjima usuli yoritiladi. Ingliz va o‘zbek ertaklaridan olingan misollar asosida bu usul amaliy jihatdan tahlil qilinadi hamda tarjima jarayonida duch kelinadigan asosiy muammolar va ularning yechimlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *ertak, barqaror birikma, maqol, ekvivalent, ichki qofiya, madaniy kontekst, allegorik maqollar*

Kirish

Tarjimashunoslikda barqaror birikmalar: frazeologik birliklar, maqollarni muqobillashtirish eng murakkab vazifalardan biridir. Ayniqsa, ertaklar kabi milliy va madaniy xususiyatlarga boy matnlarda uchraydigan barqaror birikmalarni bir tildan ikkinchisiga to‘g‘ri va aniq tarjima qilish tarjimondan til sezuvchanlik, madaniy bilim hamda frazeologik tafakkurni talab etadi. Ingliz va o‘zbek tillari frazeologik tizimi o‘ziga xoslikka ega bo‘lganligi sababli bu tillar o‘rtasida ertak matnlarida uchraydigan barqaror birikmalarni muqobillashtirish masalasi alohida o‘rganilishi lozim. Ertaklar – bu nafaqat bolalar uchun, balki kattalar uchun ham muhim bo‘lgan adabiy janr. “Ertak” atamasi Mahmud Koshg‘ariy tomonidan 1074-yilda yozilgan “Devonu lug‘otit turk” asarida “etuk” tarzda qo‘llangan. Etuk – hikoya, ertak; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu so‘z qo‘llangan” [Madayev 2010, 108].

Ertaklar (xalq og‘zaki ijodi) bo‘yicha ko‘plab olimlar ilmiy tadqiqot olib borgan. O‘zbek ertaklari o‘z vaqtida Miyon Buzruk So-

[1]*Nazirov Salimbek* – O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti.
E-pochta: nazirovsalimbek2@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0004-3773-227X
Iqtibos uchun: *Nazirov S.O.* 2025.*"Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalarni muqobillashtirish masalalari".* O‘zbekiston. til va Madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik. 2: 48-54.
Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/DOLY5070

lihov, Hodi Zarifov, Xolid Rasul, Buyuk Karimov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Keyinchalik bu faoliyatni K.Imomov, T.G‘oziboev, G‘.Jalolov, X.Egamov, H.Razzoqov, J.Yusupov kabi olimlar davom ettirishdi. M. Yunusov o‘zbek xalq ertaklarini to‘plash, tasniflash va ilmiy jihatdan o‘rganishda muhim hissa qo‘shgan. U o‘zbek ertaklarini janr jihatidan tahlil qilgan va ularning tarbiyaviy ahamiyatini yoritgan.

Ertaklar ko‘pincha o‘zbek va ingliz tillarida o‘xshash mavzularga asoslanadi, biroq tarjima mobaynida madaniy, tilshunoslik va stilistik farqlarni hisobga olish zarur. Aynan shu nuqtada, barqaror birikmalar tarjimasi muhim rol o‘ynaydi. Barqaror birikmalar – bu tilning oddiy, ammo keng tarqalgan va doimiy ishlatiladigan birliklari bo‘lib, ular ertaklarning o‘ziga xos uslubini shakllantiradi va madaniyatni aks ettirish, emotsional-ekspressiv vazifa bajarishda muhim ahamiyatga ega. Folklorshunos olim Omonulla Madayev shunday yozadi: *“Ertaklarda xalq tiliga mansub so‘zlardan o‘rinli foydalaniladi. Aytuvchi o‘z hikoyasini sodda gaplardan tuzilgan aniq fikrlar vositasida davom ettiradi. Bu janrga mansub asarlarda, albatta, qizlar o‘n to‘rt kunlik oydan go‘zal, yigitlar mard, qilichlar keskir, dasturxonlar ochiluvchan, xumlar qaynama xususiyatlarga ega bo‘ladi. Ertaklarda juda boy va turli-tuman o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘alar majmuasiga duch kelamiz. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodi tarkibidagi bu asarlar haqiqiy ma’noda qadriyatlar namunasi, madaniy merosimizning noyob gavhar-u injulari darajasida e’zozlanadi*” [Madayev 2010, 109].

Ertaklardagi barqaror birikmalarni tarjima qilishda bir qancha qiyinchiliklar yuzaga kelishi tabiiy. Bu birikmalar ko‘pincha tilning o‘ziga xos tuzilishiga, madaniyatga va mintaqaviy xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida mavjud bo‘lgan farqlarni inobatga olgan holda, ba’zi barqaror iboralarni bevosita tarjima qilish imkonsiz yoki ikki xalq qadriyatlari, e’tiqodiga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Shu sababli tarjimonlar madaniy va kontekstual moslikni ta’minlash uchun ba’zan o‘zgartirishlar kiritadilar. M.Bensonning “The structure of English idioms and their translation into other languages” maqolasida ingliz tilidagi idiomatik birikmalar va frazeologik tuzilmalarni boshqa tillarga tarjima qilishda duch keladigan qiyinchiliklar va tarjima usullari haqida so‘z yuritilgan [Benson, 2009].

Madaniyatlarning farqli xususiyatlari ham barqaror birikmalarni tarjima qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ertaklar ko‘pincha xalqning qadriyatlari, an’analari va o‘ziga xos obrazlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Ertaklarda mavjud bo‘lgan barqaror birikmalar ko‘pincha an’anaviy obrazlar – hayvonlar, tabiat hodisalari, diniy timsollar bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ingliz tilidagi *“a frog turned into a prince”* (qurbaqa shahzodaga aylanibdi) kabi motivlar o‘zbek ertaklarida uchramaydi va bunday holatlarda obrazni o‘zbek madaniyatiga yaqin muqobil bilan almashtirish kerak. Boshqa tomondan, o‘zbek tilidagi *“bir yostiqqa bosh qo‘yish”* iborasi ingliz tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobilga ega emas, biroq uning mazmunini *“live happily ever after”* yoki *“be happily married”* tarzida izohlash mumkin.

Bundan tashqari, o‘zbek xalq ertaklarida ko‘p uchraydigan an’anaviy boshlanmaga e’tibor qaratsak: “*Bor ekan-u, yo‘q ekan, och*

ekan-u, to‘q ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg‘a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, g‘oz karnaychi ekan, o‘rdak surnaychi ekan, tovuq taq etdi, bilmadim qaqqa ketdi". Bu boshlanmani ingliz tiliga tarjima qilishda til va madaniyatga oid bir qancha tafovutlar, qiyinchiliklar mavjud:

1. Madaniy kontekst va obrazlar: bu boshlanma o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lib, ramziy ma’noga ega. *Bo‘ri bakovul ekan* – bo‘ri marosim boshlig‘i sifatida tasvirlanadi, bu esa ingliz tilidagi ertaklarda uchramaydi.

Tulki yasovul ekan – tulki yordamchi yoki tartibni saqlovchi sifatida tasvirlanadi, bu ham o‘ziga xos obraz. Bunday obrazlar ingliz madaniyatida aniq ekvivalentlarga ega emas, shuning uchun tarjimada ularning obrazini saqlab qolish qiyin.

2. So‘z o‘yinlari, ichki qofiya va ritm: “Bor ekan-u, yo‘q ekan”, “Och ekan-u, to‘q ekan” kabi iboralar o‘ziga xos so‘z o‘yini va ritmik tuzilishga ega.

3. Yuqori darajadagi ifodalilik: o‘zbek ertaklarining boshlanishi ko‘pincha ritmik, she’riy ohangda bo‘lib, ingliz ertaklarida odatiy “Once upon a time…” boshlanmasi qo‘llanadi. Bu esa ba’zan ertakni oddiy emas, balki she’riy tarjima qilishni talab etadi. Quyida mazkur boshlanmaning ingliz tiliga erkin tarjima qilingan variantini havola etamiz:

O‘zbek tilida	Ingliz tilida
Bor ekan-u, yo‘q ekan,	Once upon a time, and maybe not,
Och ekan-u, to‘q ekan.	There was hunger, there was not.
Bo‘ri bakovul ekan,	The wolf was the marshal proud,
Tulki yasovul ekan.	The fox was the bailiff, sharp and loud.
Qarg‘a qaqimchi ekan,	The crow was the gossip-teller,
Chumchuq chaqimchi ekan.	The sparrow the rumor-yeller.
G‘oz karnaychi ekan,	The goose played the trumpet clear,
O‘rdak surnaychi ekan.	The duck blew the pipe you’d hear.
Tovuq taq etdi,	The hen clucked “clack!” and ran away
Bilmadim qaqqa ketdi.	Where she went, I cannot say.

Bundan tashqari, ingliz tilidagi *“Once upon a time”* (bir zamonlar) iborasi inglizcha ertaklarda keng tarqalgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilida bu ibora *“Bir paytlar”, “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan”* shaklida ishlatiladi. Bu iboraning har ikki tilda ham keng tarqalgan bo‘lishi madaniy o‘xshashlikni ko‘rsatadi. Biroq ba’zan bu kabi barqaror birikmalarni boshqa madaniyatga moslashtirish talab etiladi. Masalan, ingliz tilidagi *“Happily ever after”* (Doimo baxtli yashabdi) iborasi o‘zbek tilida *“Hamma o‘z maqsadiga yetibdi”, “Baxtli yashay boshlabdi”* deb tarjima qilinadi. D. Gulyamovaning “*Ertaklar va barqaror frazalar:*

tarjimonning madaniyatshunoslikka yondashuvi” asarida o‘zbek va inglizcha ertaklardagi barqaror birikmalar tahlil qilinadi va tarjima jarayonida madaniyatning o‘rni hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik va sintaktik farqlar ko‘rsatilgan [Gulyamova, 2016].

Barqaror birikmalarni tarjima qilishda sinonimlar va o‘xshash ifodalarni ishlatish keng qo‘llanadi. Ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalar (frazeologizmlar)ni tarjima qilishda sinonimlar va o‘xshash ifodalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo muloqot nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir. Frazeologik birliklarni tarjima qilishda quyidagi yondashuvlarni inobatga olish lozim:

– To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima: ma’no va obraz ikkala tilda ham tushunarli bo‘lsa, shu usuldan foydalanish;

– Sinonim yoki o‘xshash ifodani tanlash: to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima ma’noni to‘liq ifodalay olmasa, ma’nodosh yoki o‘xshash ifoda tanlash;

– Tushuntirish orqali tarjima: ibora boshqa tilda mavjud bo‘lmasa, uning ma’nosini izohlash;

– Madaniy ekvivalentni topish: ikkala tilda ham mavjud bo‘lgan, lekin turli obrazlarda ifodalangan iboralar uchun mos keluvchi madaniy ekvivalent tanlash.

Frazeologik birliklar ko‘pincha sinonimlarga ega bo‘lib, bu tarjima jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, o‘zbek tilida “toqati toq bo‘lmoq” iborasi “sabr kosasi to‘lmoq” bilan sinonim. Shuningdek, “yaxshi ko‘rmoq” iborasi “ko‘ngil qo‘ymoq” bilan ma’nodoshdir. Bu kabi sinonimlar tarjimada mos ifodani tanlashda yordam beradi. Bu esa o‘quvchiga asarning asl mohiyatini yetkazishda ahamiyatga ega. Lekin tilning leksik tizimi farq qilgani bois ba’zi barqaror birikmalarni bevosita tarjima qilish mumkin emas. Ingliz tilidagi *“a long time ago”* (ko‘p vaqtlar oldin) iborasi o‘zbek tilida “qadim-qadim zamonda” yoki “bundan ko‘p yillar avval” deb tarjima qilinishi mumkin.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklardagi barqaror birikmalar: idiomalar, frazemalar, maqollar, va boshqa turg‘un birliklar nafaqat tilni, balki madaniyatni, tarixiy tajribalarni, va xalqning dunyoqarashini ifodalaydi. Ertaklar o‘zining hikoya qilish uslubi, obrazi va ma’nosi bilan har doim o‘quvchi yoki tinglovchiga kuchli ta’sir o‘tkazadi. Barqaror birikmalar ertaklarda ko‘plab stilistik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning tarjimasi va tahlili orqali tilning o‘ziga xosliklarini tushunish mumkin. Barqaror birikmalarda metafora (taqqoslash) va tasviriylik juda ko‘p uchraydi. Ertaklar asosan tasavvurlarni rivojlantiradigan janr bo‘lib, barqaror birikmalar orqali obrazlarni kuchaytiradi. Ingliz tilida qo‘lanadigan *“A fish out of water”* iborasi o‘zining tabiiy muhitidan tashqariga chiqib, o‘zini noqulay holatda his qiladigan obraz ruhiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llansa, o‘zbek tilidagi *“Qora ko‘rgan kishi qoradan qo‘rqar”* iborasi esa qo‘rquv va tahlikani ifodalash uchun ishlatiladi.

Ertaklarda ko‘plab barqaror birikmalar nafaqat didaktik yoki axloqiy ma’nolarni ifodalash, balki hikoya syujetiga ham ta’sir ko‘rsatish vazifasini ham bajaradi. Ertaklarda barqaror birikmalar orqali qahramonning xarakteri yoki voqealar rivoji haqida ma’lumot

berish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi ertaklarda qo‘llanuvchi *“The early bird catches the worm”* maqoli qahramonning xarakterini, muvaffaqiyatga erishish uchun harakatni ertaroq boshlashi kerakligini ifodalaydi va bu maqolga sinonim sifatida “*An hour in the morning is worth two in the evening”, “He that will thrive, must rise at five”* kabi maqollar qo‘llansa, o‘zbek tilida bu maqollarga muqobil sifatida *“Avval kelgan ho‘kiz suvning tozasini ichar”* yoki *“Oldin otlangan manzilga oldin borar”* maqollarini ishlatish mumkin. Ba’zan masallar mazmunini ochib berish uchun ham maqollardan xulosa sifatida foydalaniladi, masalan, Ezop masallaridan biri bo‘lgan “The Milkmaid and her pail” (Sutchi qiz va uning chelagi) masaliga xulosa sifatida “*Don’t count your chickens before they hatch*” maqolidan foydalanilgan.

Shuningdek, inglizcha ertaklarda allegorik, ya’ni ramziy yoki kinoyaviy ma’no ifodalovchi maqollar aksar hollarda ibratli fikrni obrazlar orqali kitobxonga yetkazish uchun xizmat qiladi. “*Mushuk va sichqon ingliz ertaklarining yetakchi obrazlaridan sanaladi. Shuningdek, o‘zbek xalq ertaklari orasida mushuk yetakchi obraz bo‘lgan namunalar ham yetarli. Bunga o‘zbek xalqining “Aldoqchi mushuk”, “Yovvoyi mushuk”, “Chiroq ko’targan mushuk” kabi qator ertaklarini misol qilish mumkin. O‘zbek xalqining “Bir kosa zahar” ertagida mushuk nomi sarlavhaga ko‘tarilmagan bo‘lsa-da, ertak syujetida yetakchi obrazlardan biri sifatida ishtirok etgan*”. [Xalilova, 2023, 16] Quyida ingliz ertaklarida keng uchraydigan allegorik maqollar va ularning “O‘zbek xalq maqollari” kitobi asosida tanlangan muqobillarini keltirib o‘tamiz: [Mirzayev, 2005]

Ingliz tilida	O‘zbek tilida
Don’t count your chickens before they hatch	Bo‘lmagan molni bozor qilma
Slow and steady wins the race	Shoshgan toy tongda yetar, sabr qilgan g‘amdan qutar
You can’t judge a book by its cover	Ko‘rpa tagidan chiqqan gapga ishonma
Every cloud has a silver lining	Har baloda bir hikmat bor
When the cats away, the mice will play	Bo‘ri yo‘q – qo‘zi podachi
Clothes don’t make the man	Tashqi ko‘rinish aldamchi Tuz ham shakar kabi ko‘rinadi.
Too many cooks spoils the broth	Qassob ko‘p bo‘lsa, qo‘y harom o‘lar Cho‘pon ko‘p bo‘lsa, qo‘y harom o‘lar Xotin ko‘p bo‘lsa cho‘michni it yalaydi

Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklar madaniy, tilshunoslik va stilistik jihatlari bilan ajralib turadi. Barqaror birikmalarni tarjima

qilishda madaniy o‘zgarishlarni, uslubiyat va matn tuzilishini ham inobatga olish zarur. Tarjimonlar bu jarayonda ba’zan to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjimadan ko‘ra, sinonimlar yoki o‘xshash ifodalardan foydalanishi maqsadga muvofiq. Natijada, ertaklarning o‘ziga xos jihatlari: tuzilishi, mazmuni, obrazlar xilma-xilligi va badiiy tasvir vositalariga putur yetmaydi. Ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalarni tarjima qilish va muqobillashtirish, tarjimonning nafaqat til bilimini, balki ikki xalqning madaniy tafakkurini chuqur tushunishini talab qiladi. Har bir barqaror birikmaning o‘ziga xos madaniy va semantik yuklamasi mavjud bo‘lib, ularni tarjima jarayonida e’tibordan chetda qoldrimaslik kerak. To‘g‘ridan-to‘g‘ri, sinonimik va tushuntiruvchi muqobillarni tanlashda kontekst va qo‘llanish chastotasi hisobga olinishi lozim. Ingliz va o‘zbek tilidagi ertaklar asosida olib borilgan muqobillashtirish tadqiqotlari tarjimashunoslik nazariyasiga muhim amaliy hissa bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

Madayev O. (2010). O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so‘z.

Mirzayev T. (2005). O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent.

Benson M. (2009). The structure of English idioms and their translation into other languages.

Gulyamova D. A. (2016). Ertaklar va barqaror frazalar: Tarjimonning madaniyatshunoslik yondashuvi. – Tashkent.

Xalilova Sh. J. (2023). O‘zbek va ingliz ertaklaridagi yetakchi obrazlarning qiyosiy o‘rganilishi. – Termiz.

English idioms, Phrases, Proverbs, Slangs. App. www.phrases.com

ISSUES OF EQUIVALENCE IN TRANSLATING STABLE EXPRESSIONS IN ENGLISH AND UZBEK FAIRY TALES

Nazirov Salimbek[1]

Abstract

This article analyzes the translation issues of stable expressions – namely phraseological units, idioms, proverbs and other speech patterns – found in English and Uzbek fairy tales. As fairy tales are a reflection of a nation’s cultural and spiritual heritage, their

[1]*Nazirov Salimbek* – O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti.

E-pochta: nazirovsalimbek2@gmail.com

ORCID ID: https://orcid.org/0009-0004-3773-227X

For citation: *Nazirov S.O.* 2025. " *Issues of equivalence in translating stable expressions in English and Uzbek fairy tales".* Uzbekistan. Language and Culture. Folklore. Dialectology. 2: 48-54.
Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/DOLY5070

translation requires consideration not only of linguistic features but also of intercultural differences, mentality and aesthetic criteria. The article explores the method of translating such stable expressions through the use of equivalent expressions. Practical analysis is provided through examples from English and Uzbek fairy tales, highlighting the main challenges encountered during the translation process and offering potential solutions.

Key words: fairy tale, stable expression, proverb, equivalence, internal rhyme, cultural context, allegorical proverbs.

References

Madayev O. (2010). O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so‘z.
Mirzayev T. (2005). O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent.
Benson M. (2009). The structure of English idioms and their translation into other languages.
Gulyamova D. A. (2016). *Ertaklar va barqaror frazalar: Tarjimonning madaniyatshunoslik yondashuv*i. – Tashkent.
Xalilova Sh. J. (2023). O‘zbek va ingliz ertaklaridagi yetakchi obrazlarning qiyosiy o‘rganilishi. – Termiz.
English idioms, Phrases, Proverbs, Slangs. App.
www.phrases.com

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com